



**Maktabgacha
va maktab
ta'limi vazirligi**

**Yangi o'quv yiliga tayyorgarlik hamda 1-sinf o'quvchilariga beriladigan
"Prezident sovg'alari"ni hududlarga yetkazish jarayonlariga
bag'ishlangan press-tur**

PRESS-RELIZ

2025-yil 31-iyul kuni Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan yangi o'quv yiliga tayyorgarlik hamda 1-sinf o'quvchilariga beriladigan "Prezident sovg'alari"ni hududlarga yetkazish jarayonlariga bag'ishlangan press-tur tashkil etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumanidagi 14-umumta'lim maktabi misolida tashkil etilgan tadbir avvalida yangi o'quv yiliga tayyorgarlik hamda 1-sinfga o'quvchilarni qabul qilish jarayonlari xususida atroflicha ma'lumot berib o'tildi.

Ta'kidlanganidek, **2025-2026-o'quv yilida** mamlakatimizdagi mavjud **10 170 tadan** ortiq umumta'lim maktablarida **6,7 mln nafar** o'quvchi ta'lim olishni boshlashi kutilmoqda. Shuningdek, yangi o'quv yilida respublikada **30 dan ortiq** yangi maktablar o'z faoliyatini boshlaydi.

Joriy yilda ijtimoiy, ishlab chiqarish dasturlari va boshqa manbalar hisobidan **379 ta** maktabda qurilish va ta'mirlash ishlari olib borilmoqda va buning natijasida **112 mingga** yaqin o'quvchi o'rni yaratilishi, **73 mingtadan ortiq** o'rinli o'quv binolari mukammal ta'mirlanishi rejalashtirilgan.

Yangi o'quv yilida **738 ming nafar** bola 1-sinfga kelishi kutilmoqda hamda bugungi kunga qadar **590 ming nafar** bola maktabga qabul qilindi. Qabul jarayonlari **15-avgustga qadar** davom etadi.

1-sinfga qabul qilinayotgan bolajonlar uchun **12 nomdagi** o'quv qurollari Prezident sovg'asi sifatida tayyorlandi.

Ma'lumot uchun: *1 ta o'quv sumkasi, 12 ta o'n ikki varaqli daftar, 1 ta ruchka, 2 ta oddiy qalam, 1 ta o'n ikki rangdagi qalamlar to'plami, 1 ta rangli qog'oz to'plami, 1 ta plastilin, 1 ta rasm daftari, 2 ta o'chirg'ich, 1 ta o'n ikki rangdagi akvarel buyog'i, 1 ta yelim (kley), 1 ta qalamdon.*

Ayni vaqtda ushbu o'quv qurollarini vazirlik huzuridagi "Ta'lim-ta'minot va logistika" xizmati tomonidan joylardagi maktablarga yetkazish jarayoni boshlandi. Xususan, **1-10-avgust kunlari** hududlarga, **10-20-avgust kunlari** maktablarga yetkaziladi.

Prezident sovg'asi sifatida tayyorlangan ushbu o'quv qurollari **"Birinci qo'ng'iroq"** tadbirlaridan so'ng bolajonlarga tantanali ravishda topshiriladi.

Aytish lozimki, 1-sinfga qabul qilinayotgan har bir bolani "Prezident sovg'asi" bilan o'z vaqtida ta'minlash maqsadida vazirlikning **adm.maktab.uz elektron platformasi** orqali maktablar kesimida bolalarning ro'yxati nomma-nom shakllantirildi (*bunda nodavlat maktablar va boshqa vazirlik tasarrufidagi maktab o'quvchilari ham inobatga olingan*).

Ma'lumot uchun: o'quv qurollarining sifati va sanitar gigenik talablarga mos kelishi to'g'risida "O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" davlat muassasasining "Toshkent" mahsulotlarni sertifikatlashtirish organi tomonidan muvofiqlik sertifikati olingan.

Press-tur tadbirlari doirasida 2025-2026-o'quv yilidan poytaxtimizdagi **12 ta** (*har bir tumanda 1 tadan*) maktabda joriy etilayotgan **Toshkent tajribasi loyihasi** xususida ham batafsil ma'lumot berib o'tildi.

O'quvchilarning sifatli bilim olishlari uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratish maqsadida yo'lga qo'yilgan ushbu loyiha doirasida o'quvchilar va ularningota-onalari o'rtasida so'rovnoma o'tkaziladi hamda har bir maktabda **5-11-sinflar bo'yicha 1 tadan sinf** tanlab olinadi va o'quvchilar tanlov asosida qabul qilinadi.

Ushbu sinflarga tabiiy va amaliy yo'nalishdagi **10 ta fandan** (*davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarida belgilangan soatlardan tashqari*) **1-3 soatgacha** qo'shimcha dars mashg'ulotlari o'tiladi. Natijada maktabning har bir **7-11-sinflarida haftasiga 16 soat qo'shimcha** dars mashg'ulotlari o'tiladi.

Shuningdek, ajratilgan **5 ta 7-11-sinflar uchun** kunning ikkinchi yarmida **10 ta fan** doirasida haftasiga **2 soatdan** to'garak mashg'ulotlari tashkil etiladi.

Dars mashg'ulotlarini olib borish uchun oliy toifali yoki xalqaro va milliy sertifikatga ega bo'lgan o'qituvchilar, oliy va nodavlat ta'lim muassasalarining tajribali mutaxassislari tanlov asosida jalb etiladi. Ushbu mutaxassislar **Toshkent shahar hokimligi tomonidan qo'shimcha rag'batlantiriladi.**

Loyiha doirasida 5-11-sinf o'quvchilari uchun fan to'garaklari va sport seksiyalari, 1-11-sinf o'quvchilari uchun **robototexnika, kompyuter savodxonligi, hunarmandchilik** yo'nalishlarida hamda **"Yosh dasturchilar", "Yosh kitobxon", "Turon" maktab teatri, "Yosh musavvir"** to'garaklari faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun kuni uzaytirilgan guruhlar tashkil etiladi hamda o'quvchilarning darsda olgan bilimlarini mustahkamlash va uy vazifalarini tushuntirib berish amaliyoti yo'lga qo'yiladi.

Ushbu tadbirlarni samarali tashkil etish uchun mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan robototexnika xonasi, VR – virtual realiti xonalari yangidan tashkil etiladi hamda texnologiya, informatika xonalari, fizika, kimyo-biologiya

laboratoriyalari zamonaviy jihozlar va xom ashyolar, maktab kutubxonasi badiiy adabiyotlar bilan ta'minlanadi.

Press-tur doirasida yangi o'quv yilidan boshlab tashkil qilinayotgan **208 ta** (*barcha tuman (shahar)da bittadan*) "Jasorat maktablari" faoliyati xususida ham atroflicha ma'lumot berib o'tildi.

Aytilganidek, joriy o'quv yilida ilk bor **5 408 nafar** o'quvchi "Jasorat maktablari"ga qabul qilinadi. Iyul oyida o'tkazilgan ikki bosqichli (*test va jismoniy tayyorgarlik*) saralash imtihonlarida **18 441 nafar** (*13 206 nafari o'g'il bola, 5 235 nafari qiz*) nomzod ishtirok etdi.

"Jasorat maktablari"ni tashkil etishdan maqsad, o'quvchi-yoshlarni Vatanga cheksiz sadoqat ruhida, jismonan sog'lom va ma'naviy yetuk insonlar qilib tarbiyalash, ularga matematika, CHQBT, tarix, jismoniy tarbiya, chet tili, fizika fanlarini chuqurlashtirilgan holda o'qitishdan iboratdir.

Avgust oyida ushbu fanlar o'qituvchilarining kasbiy salohiyatini oshirish maqsadida Pedagogik mahorat markazlarida **36 soatlik o'quv kurslari** tashkil etiladi.

Press-tur tadbirlari tashkil etilgan Uchtepa tumanidagi 14-maktab **1 250 o'rinli** bo'lib, yangi o'quv yilida **1 265 nafar** o'quvchi tahsil olishi rejalashtirilgan. Maktabdagi **57 nafar** o'qituvchining **80 foizi yoki 45 nafari** malaka toifasiga, **7 nafar** xorijiy til fani o'qituvchisi xalqaro sertifikatga ega.

Yangi o'quv yilida maktabning 1-sinfiga **210 nafar** bola qabul qilinishi rejalashtirilgan bo'lib, ayni vaqtga qadar **135 nafar** bola qabul qilingan.

Ushbu maktab Davlatimiz rahbarining tegishli qaroriga muvofiq, harbiy-vatanparvarlik yo'nalishidagi "**Jasorat maktabi**" etib belgilangan. Maktabda maxsus fan xonasi jihozlanib, alohida tanlov asosida **26 nafar** o'quvchi harbiy-vatanparvarlik sinfiga qabul qilindi.

Shuningdek, mazkur maktabda 2025-2026-o'quv yilidan boshlab "**Toshkent tajribasi**" loyihasi amalga oshirilmoqda. Bunda tanlab olingan **7-11-sinf** o'quvchilari dars jarayonlaridan keyin **6 ta fandan** chuqurlashtirilgan holda o'qitiladi.

***Maktabgacha va maktab ta'limi
vazirligi Axborot xizmati***